

## O'TKIR HOSHIMOVNING "IKKI ESHIK ORASI" HAMDA "TUSHDA KECHGAN UMRLAR" ASARLARI LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARINING QIYOSIY TAHLILI

*Davlatova Rushana Ilhom qizi - Magistrant*  
[rushanadavlatova727@gmail.com](mailto:rushanadavlatova727@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek xalqining zabardast vakili, taniqli yozuvchisi O'tkir Hoshimov va uning insonlar taqdiri hamda inson umrining murakkabligi mahorat bilan tasvirlangan "Ikki eshik orasi" romanini o'rganishda metodik tavsiyalar, turli zamonaviy usullardan samarali foydalanish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** O'tkir Hoshimov, "Ikki eshik orasi", portret, inson hayoti, samimiylilik, soddalik, yozuvchining mahorati, badiiylik masalalari, asar qurilishi.

**Abstract.** This article talks about methodical recommendations and effective use of various modern methods in studying the novel "Between Two Doors" by O'tkir Hoshimov, a prominent representative of the Uzbek people and a well-known writer, and his novel "Between Two Doors" skillfully describes the fate of people and the complexity of human life.

**Key words:** Otkir Hashimov, "Between Two Doors", portrait, human life, sincerity, simplicity, writer's skill, artistic issues, construction of the work.

Bizga ma'lumki, bugungi ilm-fan va texnika rivojlanayotgan bu davrda iqtidorli, har sohada faol yoshlarga ehtiyoj ham ortib bormoqda. Shunday talabchan, qiziqqon, o'rgangan bilim va ko'nikmalarini hayotda qo'llay oladigan yoshlarning me'mori bevosita o'qituvchilardir. O'qituvchilarning dars jarayonini bolalarni fikrlashga undovchi metodik usullar orqali olib borishi, rang-barang materiallardan foydalanishi o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini, badiiy asarlarga mehrini oshiradi. Xalqimizning ardoqli yozuvchisi O'tkir Hoshimovning ijodini o'rganish, uning asarlaridan to'g'ri xulosalar chiqarish bizga hayot yo'limizni yorituvchi mash'al desak mubolag'a bo'lmaydi.

"Ikki eshik orasi" asarida insonlar taqdiri va inson umrining murakkabligi mahorat bilan tasvirlangan.

Adib, birinchi navbatda, tinchlikka rahna solgan urushni tilga oladi. Ayniqsa, urush voqeligining har bir ota-onas qalbini jarohatlagani, ko'ngillariga ozor yetkazgani romanning umuminsoniy pafosini tashkil etadi.

Adib qalamga olgan obrazlari oddiy odamlarning fazilatlari — mardligi, matonati, vatanparvarligi va sabr-bardoshini haqida so'zlaydi. Tajribali yozuvchi roman hodisalarini teran o'rgangani uchun har bir epizod o'quvchini qalbiga jiddiy ta'sir qiladi. Asarda tasvirlangan hayot manzaralari, insonlararo munosabatlar

shuningdek, yozuvchining o‘ziga xos badiiy uslubi juda tabiiy hamda samimiyligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham asarni chuqurroq o‘rganish va o‘rgatish bizga go’zal fazilatlarni akslantiradi.

O‘tkir Hoshimov – el ardoqlagan adib, so‘z san’atkori! Adibning barcha asarlari o‘zbek va va boshqa qardosh xalqlar mulkiga aylanib ketgan. “Bahor qaytmaydi”, “Tushda kechgan umrlar”, “Ikki eshik orasi”, “Nur borki soya bor”, “Dunyoning ishlari”, “Ikki karra ikki – besh ” kabi qissa va romanlari, yuzdan ortiq dilbar hikoyalari, komediya va fojealari xalq orasida juda mashhur bo‘lib ketgan. “O‘tkir Hoshimov iste’dodli yozuvchi, aqli, dono inson... U – ko‘p betakror adabiy qahramonlar yaratgan taniqli yozuvchidir”.

Qalam sohibi adabiyotning ko‘plab janrlarida barakali ijod qilgan. Adabiy turning qay bir janrida mehnat qilmasin barchasi ijobiy yakun bilan o‘z o‘quvchilari qo‘liga yetib bordi. Ijobiy deganda qaysi ma’nodaki, asarning mavzusi, dolzarbligi, xotimasi o‘quvchi kutgandek baxtli yakun topmas, lekin ijodkorning mohirona yondashuvi kitobxonni fikrashga,adolatli xulosa chiqarishga undaydi. Kitob nimasi bilandir o‘ziga tortaveradi. Shunday mayllikni paydo bo‘lishida texnik unsurlar, kompozitsion, syujet va badiiylik unsurlarining ham ahamiyati kattadir. Shulardan portret va peyzajning O‘tkir Hoshimov asarlaridagi o‘rnini alohidadir.

“Portert – badiiy asarda kishining tashqi qiyofasi, siymosi, kiyim-kechagi vahokazolar tasviridir. Portret atamasi, odatda, ikki ma’noda, ya’ni qahramonning tashqi ko‘rinishi (tor ma’noda) va qahramonning individual-psixologik qiyofasi (keng ma’noda) qo‘llaniladi”. Boshqacha qilib aytganda, badiiy obraz yaratish vositalaridan biridir. Portret xarakteri asar janriga hamda yozuvchining ijodiy metodi va individual uslubi xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Odatta, portret personaj xarakterining yozuvchi eng muhim deb hisoblagan jihatlarini ochib beradi O‘tkir Hoshimov asarlarida portret bilan birga peyzaj ham ahamiyatlidir.

“Peyzaj – badiiy asarda aks ettirilgan tabiat manzaralari, voqeа-hodisalar kechgan joylar ko‘rinishi tasviri. Peyzaj asardagi badiiy voqelikning muhim unsuri, voqealar kechadigan ochiq makon tasviridir”. Tabiat tasviri syujetning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, asarning g‘oyaviy-estetik darajasini yuksaltirish, syujet rivojini tezlashtirish yoki sekinlashtirish, qahramonning ichki dunyosini ochish kabi vazifalarni bajaradi. Adibning “Bahor qaytmaydi” asarini olaylik. “Bo‘ston qishlog‘iga og‘rvazmin qadamlar bilan kuz kirib keldi. Tumanlik qo‘ynida jimgina mudragan tonglar, ilk sovuq og‘ushida junjikkan seryulduz oqshomlar boshlandi. Hamma yagona bir tashvish bilan, kuz tashvishi bilan turib, kuz tashvishi bilan yotadigan bo‘ldi.” degan jumlalar orqali ushbu tabiat manzarasi qissadagi personajlar taqdiri bilan parallel ravishda mavjlanib borgan. Go‘yoki insonlarning taqdiridagi beayovliklarni ushbu manzara orqali berib, umr deb atalmish yo‘lda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan noxush hodisani oldindan bayon qilganday. Xuddi shu asarning yana bir o‘rnida , ya’ni

Muqaddam Alimardonning qilgan nojo‘ya ishidan keyin o‘g‘lini bag‘riga bosgancha kuyuna-kuyuna yig‘lab ketayotgan bir paytda Muqaddamning ko‘zlariga osmondagи yulduzlar ham simsim yig‘lab unga tasalli berayotganday tuyilganligi ta’riflanadi. Bunda tabiatdagi barcha hodisalar inson taqdiriga ma’no-mazmun, ranginlik va jilo kabi zaruriyatlarni bag‘ishlaydi. Portret ham, peyzaj ham, asosan, o‘xshatish birliklaridan iborat bo‘ladi. Tashbeh badiiy asarga qanchalik jilo baxsh etsa, endi uning tabiat manzaralari bilan yo‘g‘rilishi asarga o‘zgacha jonlilik beradi. Portret va peyzaj orqali ijodkorning ichki olami to‘g‘risida ham bir qancha kashfiyotlar paydo bo‘ladi.

Inson ma’naviy olamini kashf etuvchi qudratli vositalardan biri bu – so‘z san’ati, badiiy adabiyotdir. Bugun milliy adabiyotimiz mavzular ko‘lami jihatidan ham, janrlar nuqtai nazaridan ham rang-baranglashib bormoqda. Ijtimoiy tafakkur eskicha qarash va yondashuvlardan xalos bo‘lib borayotgan bir davrda ilm-fanning barcha sohalari qatori adabiyotshunoslikning ham muhim nazariy masalalarini har tomonlama teran tadqiq etish borasida keng imkoniyatlar ochilmoqda. Adabiyotshunoslik va uning tadrijida ijodkor badiiy mahorati masalasi bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki busiz milliy badiiy-estetik tafakkurni boyitib, yangilab, rivojlantirib bo‘lmaydi. Bunda, ayniqsa, hayotni badiiy yorqin tasvirlash, betakror obrazlar yaratish, milliy adabiyotimiz xazinasini yangi poetik kashfiyotlar bilan boyitishga muvaffaq bo‘lgan yozuvchilar ijodini tadqiq etish beqiyos o‘rin tutadi. Shu ma’noda XX asr o‘zbek nasrining ko‘zga ko‘ringan ijodkorlaridan bo‘lgan O‘tkir Hoshimov asarlarini o‘rganish, yozuvchining o‘ziga xos uslubi va badiiy mahoratini tadqiq etish muhimdir.

Zero O‘tkir Hoshimov so‘zni san’at darajasiga olib chiqqan, uning har bir qa’tidan yangilik, badiiy yuksaklik axtargan va ana shu yuksaklikni ijod o‘zagi deb bilgan yozuvchidir.

“Tushda kechgan umrlar” romanida ham adibning avval yaratilgan romani “Ikki eshik orasi” romani kabi voqelik bir necha roviylar tilidan hikoya qilinadi. Bu usul adib uchun o‘z g‘oyasi va fikrlarini ifoda etishning vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Aynan shu holat asar syujetining ham o‘ziga xosligini ta’milagan Badiiy asarda syujet markaziy ahamiyatga ega hisoblanadi. Syujet atamasiga ilmiy adabiyotlarda turli ta’riflar berilgan. Masalan, “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da “Syujet (frans. — predmet, “asosga qo‘yilgan narsa”) badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri sanalib, badiiy asardagi bir-biriga uzviy bog‘liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimini anglatadi. Umuman, sujetlilik badiiy adabiyotning xos xususiyatlaridan biri bo‘lib, barcha turdagи badiiy asarlarda ham syujet mavjuddir”, deyiladi. Har bir asarning syujeti qaysi janrga mansubligiga qarab o‘ziga xos tarzda bo‘ladi.

Xususan, epik janrdagi asarlar syujet va kompozitsiyasi yaxlit butunlikka ega ekani bilan lirik va dramatik turga mansub asarlardan ajralib turadi. Muallif uchun

syujet voqealari personajlar xarakterining ochilishi, shakllanishi muhim asos vazifasini o‘taydi. “Syujetning badiiy asardagi funksiyalari haqida so‘z ketganda, avvalo, uning asar problemasini badiiy tadqiq etishga imkon beradigan hayot materialini uyushtirib berishini aytish kerak”.

O‘tkir Hoshimov – el ardoqlagan adib, so‘z san`atkori. Adibning barcha asarlari o‘zbek va va boshqa qardosh xalqlar mulkiga aylanib ketgan. “Bahor qaytmaydi”, “Tushda kechgan umrlar”, “Ikki eshik orasi”, “Nur borki soya bor”, “Dunyoning ishlari”, “Ikki karra ikki – besh ” kabi qissa va romanlari, yuzdan ortiq dilbar hikoyalari, komediya va fojealari xalq orasida juda mashhur bo‘lib ketgan. Kitobxon sifatida men adibning “Ikki eshik orasi” romaniga to‘xtalmoqchiman., „Ikki eshik orasi“ — o‘zbek yozuvchisi O‘tkir Hoshimov qalamiga mansub roman. Asar O‘tkir Hoshimov merosining asosiy o‘rinlardan birini egallaydi.<sup>1</sup> Asarda insonlar taqdiri va inson umrining murakkabligini mahorat bilan tasvirlangan. Adib, birinchi navbatda, tinchlikka rahna solgan urushni tilga oladi. Ayniqsa, urush voqeligining har bir ota-onan qalbini jarohatlagani, ko‘ngillariga ozor yetkazgani romanning umuminsoniy pafosini tashkil etadi. Adib qalamga olgan obrazlari oddiy odamlarning fazilatlari — mardligi, matonati, vatanparvarligi va sabrbardoshini haqida so‘zlaydi. Tajribali yozuvchi roman hodisalarini teran o‘rgangani uchun har bir epizod o‘quvchini qalbiga jiddiy ta’sir qiladi. Asarda tasvirlangan hayot manzaralari, insonlararo munosabatlar shuningdek, yozuvchining o‘ziga xos badiiy uslubi juda tabiiy hamda samimiyligi bilan ajralib turadi. Yetti qism, qirq yetti bobdan tarkib topgan roman kompozitsion qurilishi jihatidan ham o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.<sup>2</sup> Undagi voqeа-hodisalar bayonida qatnashgan to‘qqizta personaj hikoyalarini adib bir-biriga ustalik bilan bog‘lagan.

“Tushda kechgan umrlar”da kechikkan holda kulminatsiyadan so‘ng keladi. So‘ng Rustamning o‘limi bilan bog‘liq tafsilotlar ketadi. Qurbonoy xola liniyasida esa, ekspozitsiya tartib bilan kelgan. Uning biqini achishib uyg‘onishi-yu, ertalablari ko‘cha supurishga chiqishi voqealari tasviri ekspozitsiyadir. Komissar liniyasida esa u qisqaroq va voqealar rivoji oralig‘ida beriladi. Grisha liniyasida ekspozitsiya anchayin bat afsil berilgan. Buni o‘ziga xos sababi bor. Yozuvchi “noyob kadr” sifatida keltirilgan bunday nushalarning aslida qanday ekanini yaqqol tasvirlamoqchi bo‘lgan. Romanda tugun ham o‘ziga xos tarzda qo‘yilgan. Asarda mavjud syujet liniyalari o‘z tuguniga ega bo‘lishi mumkin ekan. Tugun asar voqealarining boshlanishiga turtki bo‘lgan voqeа, asar konflikti qo‘yilgan joydir. Ekspozitsiyadan farqli o‘laroq, tugun syujetning zaruriy elementi sanaladi, ya’ni u sujetda har vaqt hozirdir. Tugun, odatda, asarning boshlanishida, ekspozitsiyadan keyinoq beriladi. Shunisi ham borki, ba’zi katta hajmli asarlar sujetida bir emas, bir nechta tugunga duch kelishimiz ham mumkin. “Tushda kechgan umrlar”da ham shunday. Rustamning Afg‘on urushiga olinishi Rustam liniyasining tuguni bo‘lsa, Soat G‘aniyevning ko‘nglida “eshonvachcha”

Fotimaga nisbatan nimalarnidir uyg'onishi va bolalar tomonidan izzat-nafsi kamsitilgandagi holati komissar liniyasining tuguni. Tugundan keyingi voqealar zanjiri voqea rivoji deb yuritiladi. Odatda syujet voqealar bosqichma-bosqich rivojlantirib boriladi. Asardagi voqealar rivojining eng yuqori nuqtasi, undagi konflikt benihoya kuchaygan o'rni kulminatsiya deb yuritiladi. Masalan, Rustamning o'limi roman kulminatsiyasi sanaladi. Undan tashqari, komissarning o'g'li Mauzer tomonidan "Sizning o'g'lingiz ekanimdan uyalaman" deb aytgan paytdagi holatni komissar liniyasining kulminatsiyasi deyish mumkin. Chunki, ayni shu nuqtada komissarning va tuzumning g'ayriinsoniylikka asoslangan qiyofasi ko'rsatiladi. Mana shu gap Soat G'aniyev ko'ksini o'qdek teshib o'tadi. Kulminatsiya endi asar voqealarining yechimga tomon intilishini, bir tomonga hal bo'lishini taqozo qiladi. Yechim syujet voqealarini rivojining yakuni, ularning nihoyasida qahramonlar ruhiyatida, taqdirida yuzaga kelgan holatdir. Yechimda konfliktli holat, qahramonlar orasidagi ziddiyatlar o'zining badiiy yechimini topadi. Yechim konfliktning hal bo'lganini ko'rsatishi bilan birga uning hal bo'lmashagini ham ko'rsatadi. Rustam liniyasi konfliktini yechimi berilmagan. U o'z joniga qasd qilgan. Komissar liniyasining yechimi esa qo'rqinchli tushlar, yolg'izlik yutaman deb turgan uyda tong otishini kutib, nomalum xadik bilan yashashdir. Qurbanoy xola liniyasida esa, barcha bo'lib o'tgan ishlar Olloning irodasi ekani aytiladi.

"Tushda kechgan umrlar" da yozuvchi qo'llagan syujetning turi usul retrospeksiya deb atilib, uning mohiyati shuki, bunda yozuvchi syujet voqealarini to'xtatib o'tmishga, ilgari bo'lib o'tgan voqealar tasviriga o'tadi.

Roman boshlanishida tasvirlangan farrosh Qurbanoy xola roman o'rtalariga kelib, otasi nohaq qamalgan, onasi komissar tomonidan zo'rangan 14 yoshli qizcha tarzida namoyon bo'ladi. Yoki roman boshida o'limi tasvirlangan bosh qahramon Rustam voqealar rivoji davomida talaba, askar, uylangan yigit, otasi uchun kurashayotgan qahramon sifatida batapsil tasvirlanadi. Ma'lumki, badiiy asarda tasvirlanayotgan voqyealar makon va zamonda kechadi, shunga ko'ra adabiyotshunoslikda "badiiy vaqt" tushunchasi keng qo'llaniladi. "Tushda kechgan umrlar"da yozuvchi ijodiy niyatini amalga oshirish yo'lida "badiiy vaqt" imkoniyatlaridan keng foydalangan. Adib zarur o'rinda asar vaqtidan chekinib, o'tmishda yuz bergen voqealarni tasvirlaydi bu narsa "retrospektiv vaqt" deyiladi. Yozuvchi "parallel vaqt" dan ham unumli foydalangan. Unda yuz berishi jihatidan bir paytga to'g'ri keladigan voqealarni navbatil bilan tasvirlagan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bugungi kunda o'qituvchilarning turli xildagi metodlardan foydalanishi ta'limning talabiga aylanib ulgurgan. Bu o'z navbatida ham o'quvchini ham o'qituvchini faollikka chaqiradi. Noan'anaviy tarzda olib boriladigan darslar o'quvchilarda zerikishni keltirib chiqarmaydi va mavzuni tezroq o'zlashtirib

olishiga yordam beradi. Yuqoridagi metodlardan nafaqat adabiyotda balki boshqa fanlarda ham keng qo'llasa bo'ladi. Qay darajada qo'llay olish esa albatta o'qituvchi mahoratiga bog'liq

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. T.Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari.-T.,O'zbekiston. 2002-yil.
2. Normatov U. Nasrimiz ufqlari.-T: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974
3. N. Hotamov. B. Sarimsoqov. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1989.
4. O' Hoshimov. "Tushda kechgan umrlar" romani. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.- T: 2002
5. E. Achilova, O'tkir hoshimov asarlarida badiiypsixologizm muammosi. "XALQ TA'LIMI" ilmiy-metodik jurnali. 2021. № 5. [www.xtjurnalni.zn.uz](http://www.xtjurnalni.zn.uz).
6. Achilova Emina Sadulloyevna, ARTISTIC PSYCHOLOGY ON THE EXAMPLE OF THE WORK "SPRING DOES NOT RETURN". ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal. Vol. 11, Issue 10, October 2021